

JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

№ 2 (7) 2022 <http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц22. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

TOKDOSHLAR OILASI BIOEKOLOGIYASI

Hasanova Zulfiya Abduvakilovna-magistr

Jizzax Davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Keyingi yillarda agrar sohaning boshqa yo‘nalishlari kabi yurtimizda uzumchilik ham yaxshi rivojlandi. Yangi tokzorlar barpo qilindi, daraxtlarga ishlov berish, sug‘orishda yangi texnologiyalar joriy qilindi. Ushbu maqolada tokdoshlar oilasining bioekologiyasi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Vitis*, *V. Vinifera*, *V. Sylvestris*, *V. Sylvestris*, *V. labrusca*, *V. riparia*, *V. rupestris*, *V. Amurensis*.

Tok (*Vitis*)—uzumdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik daraxtsimon lianalar turkumi; rezavor meva ekini; Markaziy va Janubiy Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada 60—70 turi ma‘lum. Uzoq, Sharq, Kavkaz, O‘rta Osiyo va Janubiy Yevropada 7—8 turi keng tarqalgan. Madaniy T. (*V. vinifera*) barcha qit‘alarda yetishtiriladi. Jahon bo‘yicha tokzorlar maydoni 7426 ming ga, hosildorlik 81,7 s/ga, yalpi hosili 60687 ming t. Fransiya (871 ming ga), AQSH (350 ming ga) Ispaniya (1,16 mln.ga), Italiya (880 ming ga)da katta maydonlarda yetishtiriladi (1999). O‘zbekistonda tokzorlar maydoni 140 ming ga, yalpi hosil 516,4 ming t, hosildorlik 51,0 s/ga (2003).

Tok O‘rta dengiz atroflari va G‘arbiy Osiyoda mil. dan bir necha ming yillar ilgari yetishtirilgan. Madaniy tok taxminan o‘rmon toki (*V. sylvestris*) va boshqa yovvoyi turlaridan kelib chiqqan. Ekiladigan navlarning ko‘pchiligi shu turga mansub. Shuningdek, Shimoliy Amerika tok turlari *V. labrusca*, *V. riparia*, *V. rupestris* va boshqaham ekiladi. Amur toki (*V. amurensis*) — manzarali o‘simlik. Tyan shan va Pomir Olay tog‘larida o‘sovchi hisor uzumi (*V. hissarica*) Qizil kitobga kiritilgan.

Madaniy tokning baquvvat ildizi 7 m va undan ortiq chuqurlikkacha boradi. Tok tanasi — liana. Uning ko‘p yillik novdalari (zang va madang) turli yo‘g‘onlikda bo‘ladi. Bir yillik novdalari uzun (3–5 m) va ingichka bo‘lib, bo‘g‘imida barg, barg qo‘ltig‘ida kurtaklar rivojlanadi. Novdaning pastki, asosan 3—5bo‘g‘imlarida gul to‘plami, ustkilarida gajaklar (bargning qaramaqarshi tomonida) paydo bo‘ladi. Barglari yaxlit, panjasimon, asosan, 3 va 5 bo‘lakli, navbat bilan joylashgan. Sho‘ralari shokila yoki ro‘vaksimon. Gullari mayda, ko‘kintirsarg‘ish, madaniy turlariniki, asosan, ikki jinsli, ayrimlariniki bir jinsli. Xasharotlar, shamol yordamida va o‘zo‘zidan changlanadi. G‘ujumi (uzumi) rezavor, 1—4 urug‘li, etli, sersuv yoki kamsuv. Urug‘siz navlari (kishmishlar) ham bor. G‘ujumlari turli shakl va rangda, shingilga to‘plangan.



Tok issiqsevar, sovuqqa chidamli, asosan, vegetativ yo‘l bilan ko‘paytiriladigan o‘simlik, ko‘chatlari qalamchalaridan, payvand qilish orqali, seleksiya maqsadida urug‘laridan ko‘paytiriladi, 2, 3 yili hosilga kiradi. Tokning ko‘pchilik navlari —18°, —20°, ayrimlari —28°, —30° gacha sovuqqa chidaydi, 25—30° da yaxshi o‘sadi, 40° dan yuqori harorat yomon ta‘sir ko‘rsatadi. Tok yog‘inlar miqdori 300 mm dan kam bo‘lganda sug‘orib yetishtiriladi. Tok aslida yer tanlamaydi, ammo qumoq tuproqli, sug‘oriladigan, unumdor yerlarda yaxshi o‘sadi. Tok 30—300 yil yashaydi, o‘z ildiziga ega tuplari 60—80-yil, payvand qilinganlari 30—40-yil hosil beradi. O‘rtacha hosildorligi 70—400 s/ga ga boradi. Tokning uzumi yeyiladi, qayta ishlanadi (konserva qilinadi, turli vinolar, konyak, qiyom, shinni, sharbat, kompot tayyorlanadi, mayiz solinadi va boshqalar). Uzun tarkibida 65-85% suv, 33% gacha qand, 0,5-1,4% organik kislotalar, 0,15—0,9% oqsil, 0,3—1,0% pektin, 0,3—0,5% mineral moddalar, shuningdek, S, V, V2 vitaminlar, provitamin A, g‘ujumi po‘stida oshlovchi va bo‘yoq moddalar, pektin va boshqa, urugida 4—19% moy, 1,8—8% oshlovchi moddalar bor.

Tok asosan, tekis, shuningdek, qiyalik yerlarga (terrasa solib) ham ekiladi. Ekishdan oldin gektariga 30—40 t chirigan go‘ng, 600–1000 kg superfosfat, 150 kg kaliyli o‘g‘it solinadi, yer plantaj plug bilan 60 sm chuqurlikda g‘aydaladi, Tokning bir yillik yaxshi pishgan novdalaridan kuzda 35—40 sm uzunlikda qalamchalar olinadi, ko‘chatzorlarda ko‘chat yetishtiriladi. Tokning bir yillik ko‘chatlari navi, tuproq iqlim sharoiti, o‘stirish usuliga qarab qator oralig‘ini 2—3—4—5, tup oralig‘ini 2—3—4 m qilib, kuz va bag‘orda ekiladi. Novdalari yozning 2 yarmida chekanka qilinadi. Kelgusi yili bahoridan tuplarga shakl beriladi. Tok novdalarini ko‘tarmay (yertok) yoki novdalarini so‘ri, simbag‘iz, ishkonga kutarib yetishtiriladi, Kamdan-kam hollarda aymoqi (daraxtlarga chirmashtirib) qilib o‘stiriladi.

O‘zbekiston sharoitlarida kuzda kesilib, novdalari qo‘ndiq qilingan holda tuproq yoki barda, poxol bilan yopiladi va erta bahorda ochilib, madang va novdalari ko‘tarib bog‘lanadi.

Tokning o‘shishi va hosildorligi xomtok, novda uchlarini 1—2 sm chilpish (gullash boshlarida), novdalarini kesish (qarang Tok kesish) kabi agrotexnika usullari bilan rostlanib boriladi. Har gektar tokzorga har 2—3 yilda 20—30 t chirigan go‘ng, har yili 300—400 kg ammiakli selitra, 400—500 kg superfosfat, 60—90 kg kaliyli ugit solinadi. Yer sharoitiga qarab, gektariga 600—1000 m³ normada 2—6 marta sug‘oriladi, qishda 1—2 marta 1500—2000 m³ normada yaxob suvi beriladi. Hosildorlikni oshirish uchun Tok navlari (ayniqsa, urg‘ochi gulli Charos, Nimrang va boshqalar) qo‘shimcha changlanadi. Qarigan yoki sovuq urgan Tok tuplari ustki qismini kesib tashlash bilan yoshartiriladi, noyob navlarini iskana payvand yo‘li bilan ko‘paytirish mumkin.



Tok navlari ertapishar (120—130 kunda), o‘rtapishar (135—140 kunda), kechpishar (150—170 kunda) navlar guruhlariga bo‘linadi. O‘zbekistonda 250 ga yaqin uzum navlari iqlimlashtirilgan. 21-asr boshida respublikada ekiladigan va davlat reyestriga kiritilgan 40 ga yaqin uzum navlari (2004) 3 guruhga bo‘linadi: 1) xo‘raki (Nimrang, Parkent, Kattaqo‘rg‘on, Toifi, Sultoniy, Charos, Kitob surxagi, Husayni, Qora janjal, Haliliy, Chillaki, Daroyi, Rizamat, Ho‘ja Axroriy va boshqalar); mayizbop (Ok kishmish, Kora kishmish (shivilg‘oni), Pushti kishmish, Shakarangur, Sultoniy, Kattaqo‘rg‘on, Nimrang va boshqalar); 3) vinobop (Baxtiyoriy, Aleatiko, Tarnoye, Bayan shirey, Muskatlar, Risling, Bihishti, "VIR", Saperavi va boshqalar) navlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Балашев Н.Н., Земан Г.О. “Сабзавотчилик” Т., “Ўқитувчи”, 1977.
2. Бўриев Х.Ч., Зуев В.И., Қодирхўжаев О. Мухамедов М.М. “Очиқ ерда сабзавот экинлар етиштиришнинг прогрессив технологиялари” Т., “ЎзМЕДИН”, 2002.
4. Рыбаков А.А., Остроухова С.А. “Ўзбекистон мевачилиги” Т., 1981.
6. Темуров Ш. Узумчилик. Т., “Миллий энциклопедияси” 2002.
7. Бўриев Х.Ч., Ризаев Р.М.- Мева узум махсулотларини биокимёси ва технологияси. Т., “Меҳнат” 2002.
8. Бўриев Х.Ч., Жўраев Р., Алимов О.– Мева сабзавотларни сақлаш ва дастлабки ишлов бериш. Т., “Меҳнат” 2002.
9. O‘zbekiston uzumchiligi, Т., 1969; Mirzayev M.M., Sobirov M.K